

**SINXRON TARJIMA**

*Bobomurodova Dilafruz Yoqub qizi*

*Termiz Davlat Universiteti*

*E-mail: [bobomurodovadilafruz447@gmail.com](mailto:bobomurodovadilafruz447@gmail.com)*

*Ramazonov Shohruh Nusratillo o'g'li*

*TerDu Xorijiy filologiya fakulteti*

*Ingliz tili va Adabiyoti kafedra o'qtuvchisi*

*E-mail: [shakhrookhramazanov@gmail.com](mailto:shakhrookhramazanov@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Sinxron tarjima - og'zaki tarjima hisoblanadi. Bu tarjima jarayonida maxsus jihozdan foydalanib tarjima qilinadi. Notiqning nutq so'zlayotgan vaqtda tarjimon uni bo'lmasdan, nutq mazmunini tinglovchilarga yetqizib beradi. Shuningdek bu maqolada sinxron tarjima tarixi va kelib chiqishi haqida ham ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Sinxron tarjima, lingvistik xususiyatlari, grammatik xususiyatlari, ketma-ket tarjima.

**Abstract:** Synchronous interpretation is an interpretation. It is translated using special equipment during the translation process. When the speaker is speaking, the interpreter conveys the content of the speech to the audience without him. This article also provides information on the history and origins of synchronous translation.

**Key words:** synchronous translation, linguistic features, grammatical features, serial translation.

Sinxron tarjima og'zaki tarjimaning eng qiyin hamda muhim turlaridan bir hisoblanib, unda tarjimon ketma-ket tarjimadan farqli o'laroq asliyat tilidagi notiq nutqini bir vaqtning o'zida tarjima tiliga tarjima qilib borishi tushuniladi. Sinxron tarzda tarjimani olib boruvchilar **sinxron tarjimon** yoxud **sinxronist** deyiladi. Odatda, sinxron tarjima amaliyoti maxsus uskunalar yordamida amalga oshiriladi. Ba'zida individual tinglovchilar uchun pichirlash texnikasi qo'llaniladi. Sinxron tarjima imkoniyati zamonaviy tillarda taxminan 50% ni tashkil qiladi. Unda so'zlar hech qanday yangi ma'lumot bo'lmagan so'zlar ulushiga to'g'ri keladi, shu bilan birga ma'lumotning bir qismi tinglovchilar tomonidan to'la to'kis qabul qilinmay qoladi. Sinxron tarjimaning asosiy prinsiplarini o'rganishga bag'ishlangan ushbu tadqiqot ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot natijalari sinxron tarjimaning usullari, xususiyatlari, tarixini o'rganish bo'yicha izlanish olib boruvchi tadqiqotchilar uchun muhim ma'lumotlar beradi. Sinxron tarjima sohasi ko'proq amaliyotda qo'llaniladi, ammo uni amaliyotda qo'llashdan oldin nazariy jihatdan ham o'rganish zarur.

Sinxron tarjima – bu og'zaki tarjima turlari orasida eng murakkabi hisoblanadi. Bu notiq nutq so'zlayotgan chog'ida tarjimonning uni bo'lmasdan uzluksiz nutq mazmunini tinglovchilarga yetkazib berishning og'zaki tarjima usulidir. Sinxron tarjimada, tarjimon tarjima qilish kabinasida o'tiradi va quloqchin (naushnik, quloq eshitgich) orqali so'zlovchini tinglaydi. So'ng tinglash chog'ida mikrofon orqali tarjima qiladi. Konferensiya xonasidagi delegatlar asosiy tilni quloqchin orqali tinglashadi. Ikkinchi Jahon urushidan so'ng ko'plab xalqaro tashkilotlarning paydo bo'lishi omilkor til vositachiligiga nisbatan kutilmagan talabning yuzaga kelishiga olib keldi.

Ayrim mualliflarning fikricha, sinxron tarjimani qo'llash haqidagi fikrning ilk marotaba bildirilganida tanqidchilar uning maqbulligiga shubha nazari bilan qaradilar. Lekin, sinxron tarjima imkoniyatlarining namoyishidan so'ng darhol sinxron tarjimonlarni tayyorlash bo'yicha dasturlar ishlab chiqildi. Birinchi amaliyotchilarga esa professional va akademik mezonlarni o'rnatishlariga to'g'ri keldi. Ilk bosqichda chop etilgan alohida qo'llanmalar hozirga qadar klassik namuna bo'lib qoladi. Konferensiya tarjimonlari aniq vaqtda ishlaydilar. Hattoki, ketma-ket tarjima chog'ida ham ular so'zlovchi gapini tugatgandan so'ng tezda harakatga tushishlari va ularning tarjimasini tez va maqsadga muvofiq bo'lishi kerak. Bu shuni anglatadiki, tarjimonlar faqatgina tahlil va fikrlarni qayta sintez qilishga emas, balki juda ham tez bajarish qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak. Hozirgi kunda sinxron tarjima maxsus moslamalar bilan bajarilyapti: delegatlar kabinada so'zlanayotgan gapni naushnik orqali tinglab o'tirgan tarjimonlarga to'g'ridanto'g'ri mikrofondan gapirishadi. Tarjimonlar tarjimani eshitishni istayotgan, naushnik kiyib olgan delegatlarga mikrofon orqali tarjima qilishadi. Ba'zi hollarda moslamalar mavjud bo'lmasa ham, sinxron tarjima pichirlash orqali amalga oshiriladi. Qatnashchilardan biri so'zlaydi va bir vaqtning o'zida tarjimon tarjima xizmatini talab qiluvchi bir yoki ko'pi bilan ikki insonning quloqlariga pichirlab tarjima qiladi.

Ma'lumki, sinxron tarjima har bir mamlakatda mavjud va ushbu tarjima turiga ehtiyoj bor. Kundan – kunga ushbu tarjimaga bo'lgan talab oshib bormoqda. Sinxron tarjima sohasiga qiziqqanim sababli kelajakda shu sohada yangliklar yaratish, ya'ni sinxron tarjimada qiziqarli va shu vaqtgacha qo'llanilmagan mashq turlarini yaratishni o'z oldimga maqsad qilib qo'ydim. Aslini olganda, sinxron tarjima 20-asrga kelibgina qo'llanila boshlandi. 19-asr oxiri – 20-asrning boshlari insoniyat faoliyatining ko'plab sohalarida – sanoat, fan, savdo-sotiqda jadal rivojlanish bo'lgani bilan ajralib turadi. Xalqaro hamkorlik o'sib bora boshlagan ham yangi shakllarga kasb etgan. Keskin ortib borayotgan talabni qondira oladigan yangi aloqa imkoniyatlariga ehtiyoj sezila boshladi. Sinxron tarjima birinchi marta 1919-yilda Parijdagi tinchlik konferensiyasida qo'llanilgan. SSSRda sinxron tarjimadan ilk bor 1926-yilda, Kominternning 6-kongressi paytida istifoda etilgan. Sinxron tarjimonlarning sa'y-harakatlari tufayli akademik Pavlovning 1935-yilda Leningradga bo'lib o'tgan XV Xalqaro fiziologik kongressdagi ochilish nutqi ingliz, nemis va fransuz tillarida o'tkazildi. Kommunistik partiyaning 20-syezdi oltita tilda olib borilgan. 2-Jahon Urushidan so'ng 1946-yildagi Nyurnberg Xalqaro harbiy sudida ilk marotaba sinxron tarjimadan foydalanildi. Sinxron tarjima talabi dastlab tarjima bilan shug'ullanuvchilarning mutlaq aksariyatini sarosimaga soldi. Hatto sinxron tarjima tanqid ostiga olinib, uning maqsadga muvofiq emasligi haqida mulohazalar bildirildi. Shunga qaramay, sinxron tarjima imkoniyatlarining amalda namoyish qilinishi natijasida tez orada yangi soha mutaxassislarini tayyorlash dasturlari ishlab chiqila boshlandi. Sinxron tarjimaning kasbiy va akademik mezonlari belgilandi. Biroq hali-hanuz ko'pchilikning sinxron tarjimaga skeptik nazar bilan qarashi seziladi. Amalda, sinxron tarjimaning uchta turi mavjud bo'lib, ular turli xil tarjimalarga tegishli:

1) Yodaki (eshitib) sinxron tarjimada. Bunda tarjimon quloqchinlar orqali notiqning uzluksiz nutqini qabul qilib, ma'lumotning tushishiga qarab tarjimani

bloklab (qismlarga bo'lib) amalga oshiradi. Bu keng tarqalgan va eng murakkab holatdir;

2) sinxron tarjimonga notiq nutqining yozma matni oldindan berilgan bo'ladi. Oldindan tayyorgarlik ko'rib yoki tayyorlanmasdan matnga qarab sinxron tarjima. Sinxron tarjimon oldindan notiqning yozma nutq matnini oladi va keltirilgan materiallarga mos tarzda tarjimani amalga oshiradi;

3) oldindan tarjima qilingan matni bir vaqtning o'zida ya'ni sinxron tarzda o'qish berish. Bu versiyada, ma'ruzachining nutqidan so'ng, sinxron tarjimon tayyorlangan matni o'qiydi va agar kerak bo'lsa, agar notiq berilgan matndan chetga chiqsa, tuzatishlar kiritadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Sinxron tarjimaning boshqa tarjima turlaridan farqi shundaki, bu tarjima murakkab hisoblanadi. Yuqoridagi boblarda ko'rib chiqilganidek, sinxron tarjimada lug'atdan foydalanib, xatolarni ko'rib chiqib, to'g'irlashga imkoniyat bo'lmaydi. Ma'lumki, sinxron tarjimada tarjimon so'zlovchi bilan bir vaqtning o'zida tarjima qilishi lozim. Ushbu sohani chuqur o'rganish uchun ko'p izlanib, o'z ustimizda ishlashimiz lozim. Har bir kasbning o'ziga yarasha qiyinchiligi bor va katta mas'uliyat talab etadi. Sinxron tarjima ham xuddi shunday. Bilamizki, sinxron tarjima konferensiya, siyosiy uchrashuvlarda ko'proq qo'llaniladi. Tarjimon diqqatini bir joyga jamlagan holda, tezkorlik bilan tarjima qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev. Sh. M „Yoshlarga e'tibor - kelajakka e'tibor “ nutq, 2017
2. Alshinbayeva. K : „, Methodology of simultaneous translation: some strategies and features” 2003
3. Hamidov X, Ismatullayeva N, Ergasheva S. Sinxron Tarjima. – Toshkent.
4. Kilian G. Seeber. Modes of interpreting: University of Geneva, 2017.
5. Rozan L.-F. La prise de notes en interpretation consecutive. Geneva: Georg., 1956;

#### **Internet manbalari**

1. [www.wikipedia.com](http://www.wikipedia.com)
2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
3. [www.referatlar.uz](http://www.referatlar.uz)
4. [www.Google.co-uz](http://www.Google.co-uz)
5. [www.ziyo.uz.com](http://www.ziyo.uz.com)